

## **Xalq bankining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi yillik HISOBOT**

### **I. Umumiy ma'lumot**

Bankning korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali 2025-yil davomida jami 65 ta xabar kelib tushgan.

Shundan, bankning ishonch telefoni orqali 4 ta, rasmiy veb-sayti orqali 8 ta, "Tezkor xabar" mobil ilovasi va boshqa aloqa kanallari orqali 53 ta xabar kelib tushgan.

### **Hududlar kesimida**

Andijon viloyati 3 ta, Buxoro viloyati 1 ta, Jizzax viloyati 3 ta, Qashqadaryo viloyati 5 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasi 4 ta, Navoiy viloyati 1 ta, Namangan viloyati 7 ta, Samarqand viloyati 9 ta, Sirdaryo viloyati 1 ta, Surxondaryo viloyati 2 ta, Toshkent viloyati 5 ta, Toshkent shahri 9 ta, Farg'ona viloyati 14 ta va Xorazm viloyati 1 ta.

### **II. Ko'rib chiqish natijalari**

Aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar yuzasidan bank tomonidan belgilangan tartibda o'rganishlar o'tkazildi.

O'rganish natijalariga ko'ra 7 ta xabar bo'yicha firibgarlik va ichki qoidalar buzilishi bilan bog'liq holatlar aniqlandi. Ushbu holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvlari o'tkazilib 12 nafar aybdor xodimlarga jazo choralari qo'llanildi hamda o'rganish natijalari bo'yicha to'plangan hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etildi.

Shuningdek, "Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan fuqarolarni rag'batlantirish to'g'risidagi" Nizom talablari asosida korrupsiyaga urinish xolatlari bo'yicha xabar bergan bir nafar fuqaro pul mablag'i bilan rag'batlantirildi.

### **III. Minimallashtirish choralari**

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha bankda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi, O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi, Korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar ro'yxati tasdiqlanib tegishli ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida korrupsiyaning oldini olish yuzasidan ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozim va eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar uchun o'quv-trening mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha reja-dastur tasdiqlandi va dastur asosida ichki hamda tashqi ekspertlar ishtirokida o'quv-treninglar tashkil qilindi.

Bankning barcha xodimlari uchun muntazam ravishda "Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish" mavzularida seminarlar tashkil etilib, ushbu tashkil etilgan seminarlarda korrupsion holatlar va ularni sodir etishda aybdor xodimlarga ko'rilayotgan qat'iy choralar faktlari bilan tanishtirilib, bu jinoyatni sodir etgan xodim jazosiz qolinmasligi haqida tushuntirilmoqda.

Korrupsiyaviy holatlarni kelib chiqishini kamaytirish maqsadida bankning rasmiy kanallari orqali keng ko'lamli targ'ibot tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish  
xizmati rahbari v.v.b.**

**A. Xaitov**